



2021- yil yanvar-iyun oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida jami **11553,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **117,1%** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 8,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu binolar va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **120,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **50,0%**), fuqarolik obyektlarini qurish **123,1%** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,9%**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **118,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,1%**) o'sishidir.




Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2020- yil	01.07.2021- yil	
Toshkent sh.	7461	8962	119,6
<i>tumanlar</i>			
Bektemir	163	190	116,6
Mirzo Ulug'bek	942	1125	119,4
Mirobod	649	826	127,3
Olmazor	610	738	121,0
Sergeli	512	487	95,1
Uchtepa	565	646	114,3
Chilonzor	987	1141	115,6
Shayxontohur	593	714	120,4
Yunusobod	1000	1158	115,8
Yakkasaroy	779	916	117,6
Yangihayot		181	
Yashnobod	691	840	121,6



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi % da 01.07.2021- yil holatiga ko'ra




Ma'lumot uchun: shaharda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Yunusobod tuman (12,9 %), Chilonzor tuman (12,7 %) va Mirzo Ulug'bek (12,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **3214,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilga nisbatan **128,1 %** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **2,2 %** punktga koʻpayib, **27,8** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Uchtepa tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 54,7 %i yoki 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 154,0 % koʻp), Yunusobod (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **41,6 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 200,3 %), va Shayxontohur tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **37,4 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **119,3 %**) ga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,7 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,1 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **112,5 %** ni tashkil etgan holda **7241,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **9,5 %** ni tashkil etdi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,0 %** punktga ko'paygan yoki **1098,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilga nisbatan **119,7 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so‘m



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **366,5** mlrd. so‘m yoki 2020- yilga nisbatan **87,1** % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **11187,2** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati **118,5** % ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **3,2** % va **96,8** % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-iyun oylarida

67,6 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **67,6 %** i yoki **7807,1** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

28,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2258,8** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **28,9 %** ni tashkil etdi.

61,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **4819,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **61,7 %** ni tashkil etdi.

9,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **728,3** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **9,3 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Toshkent sh.	11553,7	117,1	100,0
<i>tumanlar</i>			
Bektemir	592,2	125,7	5,1
Mirzo Ulug‘bek	1087,3	115,9	9,4
Mirobod	954,5	107,1	8,3
Olmazor	1070,1	111,3	9,3
Sergeli	772,1	108,3	6,7
Uchtepa	1397,3	159,7	12,1
Chilonzor	935,8	109,1	8,1
Shayxontohur	1122,5	115,9	9,7
Yunusobod	1500,1	121,7	13,0
Yakkasaroy	869,0	105,1	7,5
Yangihayot	476,1	108,6	4,1
Yashnobod	776,7	112,6	6,7

*Tumanlar bo‘yicha taqsimlangan hajmni qo‘shgan holda



Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2020-yil yanvar-iyun

15,0




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

22,1



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

62,9



Bino va inshootlarni qurilishi

2021- yil yanvar-iyun

19,0



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

20,9



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

60,1



Bino va inshootlarni qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **7,6 %** ni tashkil etib, 2020- yil ko'rsatkichga nisbatan **1,3 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,8 %** punktga ko'payib, **65,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,1 %** punktga kamayib, **26,7 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **26,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilga nisbatan **1,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **73,4 %** (**1,3 %** punktga ko'payish)ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilga nisbatan **0,3 %** punktga kamaydi va **12,2%** ni tashkil etdi. Qolgan **87,8%** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilga nisbatan **0,3 %** punktga ko'paydi.





Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo‘yicha tarkibida Uchtepa (tumandagi qurilish hajmining **54,7 %** ni tashkil etdi) va Yunusobod (mos ravishda **41,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



Tumanlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-iyun oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Yunusobod
1500,1

1

2

Uchtepa
1397,3

Shayxontohur
1122,5

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Yangi xayot
476,1

1

2

Bektemir
592,2

Sirg`ali
772,1

3





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: D.Rustamov
Aloqa telefoni: (71) 203-88-19